



## TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI F A R M O Y I S H I

2023 - yil 19 - sentabr

94-14-220-F/23

Yangihayot tuman hokimligi

### **Yangihayot tuman hokimligida Davlat xaridlarini amalga oshirish uchun xarid komissiyasi tarkibini tuzish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga hamda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-sonli Qonuniga asosan Yangihayot tumani hokimligi uchun zarur bo‘lgan tovar moddiy boyliklar, ishlar va xizmatlarni xarid qilishga yo‘naltiriladigan davlat byudjeti mablag‘laridan samarali foydalanish maqsadida;

1. Yangihayot tumani hokimligi tomonidan tovarlar, ishlar va xizmatlar xarid qilish yuzasidan doimiy xarid komissiya (keyingi o‘rinlarda - Komissiya) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Komissiya a‘zolariga:

tovarlar, ishlar va xizmatlar davlat xaridi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-sonli Qonuni asosida amalga oshirilishi;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarning takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo‘yicha xolis baholash va tartibga solish hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g‘olibni tanlash;

yig‘ilish ishtirokchilari qarorlarini bayonnoma orqali rasmiylashtirish vazifasi yuklatilsin.

3. Tovarlar, ishlar va xizmatlarning xaridlari bo‘yicha o‘tkazilayotgan tanlov ishlarini amalga oshirishda shaffoflik va ochiqlik tamoyillari asosida o‘tkazilishi uchun shaxsiy javobgarlik komissiya raisi va a‘zolari zimmasiga yuklatilsin.

4. Komissiya tomonidan mansab vakolatlarini suiste‘mol qilish, korrupsiya holatlari va qonunga zid boshqa xatti-harakatlar sodir etilishini o‘z vaqtida aniqlash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko‘rilsin.

5. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X.Tashpulatov zimmasiga yuklatilsin.

**Yangihayot tumani hokimi**



**X.Inogamov**

Yangihayot tuman hokimining  
2023-yil 19-sentabrdagi  
94-14-220-F/23-son  
farmoyishiga  
1-ilova

**Yangihayot tuman hokimligini tovarlar, ishlar va xizmatlar xarid qilish yuzasidan  
doimiy xarid komissiya**

**TARKIBI**

X. Tashpulatov Yangihayot tuman hokimining moliya-iqtisodiyot  
va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha  
birinchi o'rinbosari, *komissiya raisi*.  
Sh. Qodirov tuman hokimining o'rinbosari, *komissiya raisining*  
*o'rinbosari*

**Komissiya a'zolari:**

O. Fozilov tuman hokimining o'rinbosari  
I. Xushvaqtov tuman hokimining o'rinbosari  
I. Abdullayeva tuman hokimining o'rinbosari  
M. Kamilov tuman hokimining o'rinbosari  
I. Safarov tuman hokimligi bosh hisobchisi  
M. Ergashev Tuman hokimligining xo'jalik mudiri, *komissiya*  
*kotibi (ovoz berish huquqisiz)*

*Izoh: Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tsa yoki egallab turgan lavozimidan  
chetlatilsa shuningdek, mehnat safari, ta'tilga chiqqan taqdirda uning o'rniga  
kelgan hodim komissiya a'zosi hisoblanadi.*